

Ona yurtning - oltin beshiging

TONG yulduzi

№ 34
(66471)

2004 yil
23 avgust - 29 avgust


Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqqan
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

MEN MAKTABGA BORAMAN



Mening ismim - Sardor. Dadam o'rtoqlariga bosh bo'lib yursin, deya menga shunday ism qo'ygan ekanlar. Bog'chaga ham o'rtoqlarimdan barvaqtroq, ikki yoshga to'lar-to'lmas chiqqanman. Bog'chani o'zi yaxshi-yu, faqat uxlatishlari yomon ekan-da. Mazza qilib o'ynaymiz, deganimizda, qani bolalar, hamma joy-joyiga yotsin, deb qolishadi. Kunduzi uxlashni yomon ko'rganim uchun, uxlamasdan xayol surib yotardim. Nima haqida, deysizmi? Maktabga chiqishim, oyjonim olib beradigan oq ko'ylagu, qora shimlarim va yangi portfelim haqida-da...

Maktabda esa uxlatishmas ekan, Xurshida opam aytdilar. Tanaffusda maktab oshxonasidan o'zimiz xohlagan shirinliklarni sotib olishimiz mumkin ekan. Hozircha uydaman. «Oyjon qachon maktabga boraman?»- deb so'rasam, tishing tushganda, deydilar.

Bir kuni deng, olmani bir tishlasam qimirlab turgan tishim tushib ketdi. Suyunganimdan, rahmat senga olmajon, deb yuboribman. Demak, hademay, maktabga boraman.

Sardor SODIQOV, 7 yosh.

YURTIMIZ BAYROG'I AFINADA HILPIRAYAPTI

Birinchi olimpiya o'yinlari 1896 yili Afinada o'tkazilgan. Oradan 108 yil o'tgach, u yana Vatanga qaytdi.

Ayni kunlarda barcha sport ishqibozlarining nigohi Gretsiyaning ko'hna Afina shahriga qaratilgan. Oynayi jahon orqali namoyish qilina yotgan XXVIII Olimpiya o'yinlari siz sportsevar bolajonlarni befarq qoldirmayotganiga ishonchimiz komil. Ushbu musobaqalarda ishtirok etayotgan yer kurrasining 202 davlatidan tashrif buyurgan 16 mingdan ziyod sportchilar orasida Vatandoshlarimiz ham bor.

Yurt bayrog'i doimo yurakka yaqin bo'ladi, qalbimizni junbushga keltiradi. Dillarni g'urur va iftixorga to'ldiradi. Ayniqsa, o'zga yurtlarda g'alaba sharafiga hilpirasa...

Ma'lumki, XXVIII yozgi Olimpiada o'yinlariga yurtimizdan 69 nafar sportchilarimiz jo'nab ketgan edilar. Ular dunyoning eng kuchli sportchilari bilan sportning 15 turi bo'yicha bellashmoqdalar. Olimpiadaning tantanali ochilish marosimida vakillarimiz 144-o'rinda Afinadagi bosh stadiona kirib keldilar. Yurtimiz bayrog'ini ko'tarish esa xalqaro toifadagi sport ustasi, dzyudo bo'yicha yoshlar o'rtasida jahon birinchiligi g'olibi, Osiyo chempioni, Jahon universiadasi va Jahon chempionati sovrindori Abdulla Tangriyevga nasib etdi.

KIM EPCHILU, KIM CHAQQON


Kim epchilu, kim chaqgon
Qanday, qayerda, nega?
Kimdan kim g'olib chiqqan
Sovg'aga bo'lgan ega?

Sovg'aning bahosi yuqori
Omading kutib boqsin.
Ko'zlaringda portlab cho'g',
Nasibang to'lib oqsin!

O'rgimchakdek o'rmala,
Bedanadek yo'rg'ala,
G'alabaga harakat
Qilganlarda barakat!

Bu dunyo o'tar-ketar,
Noming qolsin omonda.
Har kim niyatga yetar
Kuch sinashib maydonda.

O'rgimchakdek o'rmala,
Bedanadek yo'rg'ala,
G'alabaga harakat
Qilganlarda barakat!



UMIDA.



YAHSHI NIYAT

Afinada Olimpiada o'yinlari boshlanganiga ikki kun bo'lgandi. Kechki payt telefonimiz qo'ng'irog'i qattiq jiringlab qoldi. Go'shakdan chempion akamizning ovozi eshitildi:

«Allo, Ma'mura, Kamola meni tanidilaringmi, men Abdulla akangiz bo'laman. Biz yaxshi yetib keldik. Yo'lda toliqmadik. Afinada sportchilar uchun qurilgan Olimpiada shaharchasidagi shinam, chiroyli uylarga joylashdik. 20 avgustda oynayi jahon birinchi namoyish qilina yotgan musobaqalarda yaxshilik ko'zatinglar. Men shu kuni fransiyalik ikki karra Olimpiya chempioni bilan bellashaman. Hozircha eson-omon ko'rishguncha, xayr!»

Abdulla akamni rosa sog'ingandik, ovozlarini eshitib suyunib ketdik. Chunki, ular uyda kamdan-kam bo'lardilar-da. Nufuzli musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish uchun goh Chorboqdagi sportchilar oromgohida, goh boshqa bazalardagi mashg'ulotlarda bo'ldilar...

Afinada musobaqalar boshlanadigan kuni biz hammadan ko'ra ko'proq hayajonlandik. Nihoyat, Olimpiadaning tantanali ochilish

marosimi boshlandi. Uni zo'r hayajon bilan tomosha qila boshladik. Stadiona O'zbekiston sportchilari kirib kela boshladilar. Ne ko'z bilan ko'raylikki, oldinda bayrog'imizni baland ko'tarib, hilpiratganacha bizning dzyudochi akajonimiz g'urur bilan qadam tashlab borardilar. Hayajondan qichqirib yuboribmiz. Uxlab yotgan uch oylik Muhammadjon ukamizni ham uyg'otib qo'ydik. So'ngra bu holatni yana yaxshilikka yo'ydik. Chunki, Muhammadjon bekorga uyg'onmadi, yillar o'tib u ham xuddi akamizdek shunday nufuzli musobaqalarda yurt bayrog'ini ko'tarib o'tsa, ajabmas.

Nasib bo'lsa, 30 avgust kuni musobaqalar yakunlanib, chempion akamiz bo'ynida medallar shodasi va bizga atalgan shirinliklar bilan kirib keladilar.

Akajon, biz Sizga omadlar tilab, intizorlik bilan kutib qolamiz.

Salom bilan singlaringiz:
Kamola va Ma'mura TANGRIYEVALAR,
Surxondaryo viloyati,
Boysun tumanidagi
Tillakamar qishlog'i.

«BIZDA QOVUN PISHDI»

Salom, o'zbekistonlik tengdoshlarim! Ushbu maktubni Ukrainadan yo'llayapman. Men Zolotoye shahridagi 71-maktabning 3-sinfida tahsil olaman. Dadam shaxtada, onam esa temir yo'lda ishlaydilar. Ishdan bo'sh vaqtlarida dehqonchilik bilan ham shug'ullanishadi. Kattagina polizimiz bor. Hozir

bizda ayni pishiqchilik pallasini. Singlim Nastya, onam va men yam-yashil polizda sapsariq bo'lib tovlanib turgan qovunlarimizni terib olyapmiz. Qovunlarimizning ta'mi yaxshiku-ya, lekin baribir O'zbekistonda pishgan qovunlarning mazasiga o'xshamaydi-da. Qovunlarimizning mazasini qayerdan bilarkan, deya ajablanayotgandirsiz?

Ukrainadan maktub

Bozorlarimizda sotiladi. Lekin ularning narxi qimmat bo'lgani uchun har doim ham sotib olib yeyolmaymiz...

O'zimizning polizimizda pishgan qovunlardan qo'ymasin. Axir, ularga mehnatimiz singgan-da.

Tatyana
MIROSHCHENKO,
Mogilyov viloyati,
Zolotoye shahri.



O'RGANGANI QO'L KELDI

Aziz yozgi ta'tilni Toshkent atrofidagi so'lim oromgohlardan birida o'tkazdi. U yerda ko'plab do'stlar orttirdi. Bolalarning har bir kunlari juda maroqli o'tardi. Turli qiziqarli o'yinlar o'ynashar, sport bellashuvlari uyushtirishar, hovuzda miriqib cho'milishardi.

Ularning eng sevimli mashg'ulotlari - kompyuter o'yinlari edi. Kompyuter klubi oromgohdan tashqarida joylashgani uchun bolalarga har doim ham u yerga chiqishga ruhsat beraverishmasdi. Aziz do'stlari Adham, Dilshod, Abror, Islom va boshqalar bilan birga kompyuterda o'yin o'ynamay, uning rahbari Sherzod akadan turli murakkab dasturlarni o'rganishga intilishardi.

-Oromgohda olgan saboqlari bolalarga juda asqotdi. «Toshkent kompyuter texnologiyasi» akademik litseyiga hech bir qiyinchiliksiz o'qishga kirishdi. Do'stlar birgalashib, «Kompyuter o'quv markazi» ochishdi va uka-singillariga saboq berib kelishyapti.

«Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan nashq», deb bejiz aytilmagan ekan-da.

Dilshod IMOMOV,

Poytaxtdagi 169 - maktabning
9 - «A» sinf o'quvchisi.

TA'TILDA TO'PLANGAN KUCH

Yozgi ta'tilimda ajoyib maskanda dam oldim. Qanday maskan ekan, deysizmi? Mayna Hasanova nomidagi bolalar dam olish maskani. U yerda juda ko'p do'st va dugonalar orttirdim. Ukam Dilshodbekka har kuni o'sha yerda tanishgan do'stlarim haqida gapirib berib charchamayman. O'zim tikuvchilik va rasm chizishga juda qiziqaman. Uy hayvonlarini boqish jonu dilim. Ayniqsa, suvda suzayotgan baliqni ko'rsam quvonib ketaman. Dam olish maskanida do'stlarim bilan o'zimiz qiziqqan narsalar to'g'risida fikr almashdik. Xullas, bu yilgi yozgi ta'tilimdan ko'nglim to'q. Endi esa yangi o'quv yiliga tayyorlanayapman. Maqsadim, ta'tilda olgan kuchlarimni to'plab, yangi o'quv yilida faqat «5» bahoga o'qish.

Sabohat ISHONQULOVA,

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi
27-maktabning 3-sinf o'quvchisi.

«ISTIQLOL» BOG'I BOR

Karima aya 70 yoshdan oshdilar. Amerikada ko'pdan buyon yashaydilar. O'zbekistonga tez-tez kela olmaydilar. Bundan 10 yil avval kelganimda Toshkent bunchalik chiroy ochmagandi. Bugun taksist bolamni ancha ovora qilib qo'ydim. Sababi qizimning uyini topa olmay rosa qiynaldik. Yurtning tinchligi, elning obodligidan boshim ko'kka yetdi.

To'g'ri, poytaxt haqida shunday gaplarni har kuni eshitamiz. Chindan-da, yurtimiz afsonaviy shaharlardek ko'rkamlashmoqda. Yaqinda biz ham oilamiz bilan Jizzax shahriga bordik. U yerdagi qurilayotgan yangi zamonaviy binolarni ko'rib hayratlandik. Jizzax shahrida qarovsiz yotgan tepalikni viloyat hokimligining tashabbusi bilan yangi boqqa aylantirishibdi. Bu bog'ning nomi - Istiqlol. Mustaqilligimizning 13 yilligi arafasida ishga tushayotgan bu bog'da attraksionlar, cho'milish havzasi, charxpalak va bolalar poyezdini uchratasiz. Istiqlol bog'i yonida esa sport majmuasi qad rostlagan. Yurtimizning shodiyona kunlarida jizzaxlik tengdoshlarimning quvonchiga sherik bo'lar ekanman, Jizzaxda Istiqlol bog'i bor, deb faxrlanaman.

Xurshida BOYMIRZAYEVA,

Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumani, Karam qishlog'i.

BOG'MISAN BOG' BO'LDI..

Uyimizga yaqin joyda bir tashlandiq, qarovsiz bog' bor edi. Begona o'tlar bosib ketgan bog'da daydi itlar sang'ib yurishardi. Biz boqqa kirish u yoqda tursin, uning yaqinidan o'tishga qo'rqardik. Uning atrofida yashaydigan bolalar esa maydonni changitib, to'p tepishardi. Axir, boshqa o'ynaydigan joylari bo'lmasa, nima qilishsin?

Yaqinda bir guruh savobtalab insonlar bog'imiz bilan qiziqib qolishdi. Bog'ni tozalab, obod qilishdi. Turli arg'imchoqlar, muzqaymoq do'konlari, o'rindiqlar o'rnatishdi. Dam olish kunlari bog'imiz gavjum bo'lib ketadi. Konsert dasturlari, sport musobaqalari bo'lib o'tadi. Bu xayrli ishlar Chilonzor tumani hokimligi hamda G'afur G'ulom nomli istirohat bog'i xodimlari tomonidan amalga oshirilibdi. Ko'z ochib yumguncha tashlandiq maydondan so'lim go'shaga aylangan bog'imiz barchamizning, ayniqsa, bog'cha kichkintoylarining eng sevimli maskaniga aylanib qoldi. Ta'til kunlarimizni u yerda maroqli va mazmunli o'tkazyapmiz.

Iroda JALILOVA,

Toshkentdagi 131 - o'rta maktabning
5 - «V» sinf o'quvchisi.

KIM BO'LSAM EKAN?

Dunyoda kasblar juda ko'p, har birining o'ziga yarasha qiyinchiliklari, mashaqqati va gashti bo'ladi. Shu jumladan telejurnalistlik kasbining ham. Bu kasb haqida bilmaganlar, «Juda oson kasb. Tayyor matnni yodlab, kamera qarshisida o'qib berish ishmi?», deyishadi.

To'g'ri, tayyor matnni yodlab beruvchilar yo'q emas. Lekin haqiqiy jurnalistlar unday bo'lmasligi lozim. Bugungi kunda xalqimiz ularga bo'lgan ishonchni yo'qotishgan. Bunga ularning o'zlari sababchilar, deb o'ylayman. Chunki ularning orasida soxta jurnalistlar ko'payib boryapti. Xalqning dardini ko'rsatib beradigan ko'rsatuvlar juda kam, nazarimda. Menimcha, jurnalist doimo xalqning orasida bo'lishi, uning dardi bilan yashashi lozim. Shunday ekan, men ham ulg'aygach ana shunday xalq dardi bilan «yonib» yashaydigan jurnalist bo'lmoqchiman.

Aziza HAKIMOVA,

«Yangi avlod» klubi a'zosi.

ONAJONIM

Onajonim, yuzingizda nur portlasin,
Baxtimizga hamisha sog'omon bo'ling.
Parvonalar bo'lib har dam qoshimizda,
Tilagim shu - mudom shod-shodumon bo'ling.

Ulg'ayarman bag'ringizda g'urbat ko'rmay,
Qalbi daryo, mehri ummon oftobimsiz.
Go'zalikka, sadoqatga timsol bo'lgan,
Dunyolarni nurti etgan mohitobimsiz.

KIFOBIM

Hayotim yo'llari senda mujassam,
Olam sinoati etib jamul-jam.
Qalbimni munavvar etgan nurti sham,
Hamrohim, sirdoshim, ilmu oftobim.

Dunyoni anglatgan ustoz - kitobim
Har bir sahifangda donalar so'zi,
Ularning o'g'iti aqlimiz ko'zi,
Ilm sallanatin sultoni o'zi.

Hamrohim, sirdoshim, ilmu oftobim
Dunyoni anglatgan ustoz - kitobim.



Yulduzoy BOYXONBOYEVA,

Namangan shahridagi
tillarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashgan
litseyning 7 - «A» sinf o'quvchisi.

ILK MAKTUB

Ismim - Jahongir. Familiyam - Abdujabborov. Men Chilonzor tumanidagi 138-maktabning 8-sinfida o'qiyman. 10 yoshimdan she'rlar yozishni mashq qilaman. She'rlarim «Tong yulduzi» sahifalarida chop etilsa judayam xursand bo'laman.

Nastarin

Bog'imizda o'sar nastarin,
Mehmonlarim sezar nafasini.
Bo'lsa hamki bizdan u yiroq,
Gullaydi u bir shoda munchochi.



HASAD KEMIRMAN YURAGINGIZNI

Yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik, sahiylik bilan baxillik hamisha yonma-yon yuradi. Bu fazilatlar bilan illatlarning orasi bir qadam. Ana shu bir qadamning hech qachon qisqarmasligini istardik.

Inson nima uchun hasad qiladi? Bu, menimcha, ayrim insonlar ruhiyatiga xos holat bo'lsa kerak. Ayrim deb bejizga aytayotganim yo'q. Dili pok, qalbi toza insonlar hasad bilan emas, havas bilan yashaydilar. Yaratgan ham ana shunday insonlarni qo'llab-quvvatlaydi. Havas qilsang yetarsan murodga, deb bejiz aytilmagan-ku, axir. Qaniydi, hech kim hasad qilmasa, o'zgalar erishgan yutuqlar o'z-o'zidan kelmaganini, katta mehnat evaziga erishilganini tushunib yetsalar va o'zlari ham astoydil mehnat qilsalar. Hasadgo'ylar erta qariydilar, asab tolalari taranglashib, tez-tez kasalga chalinadigan bo'lib qoladilar. Hasad tufayli g'iybat botqog'iga botadilar. Shu yo'l bilan hasad o'tida yonayotgan yuraklari taftini biroz bosgandek, qalblaridagi og'riqqa malham topgandek bo'ladi. Lekin shu tariqa o'zlariga gunoh orttirayotganliklarini bilmaydilar.

Keling azizlar, bu illatni qalbimizdan quvib chiqaraylik. Hasad bizni emas, biz uni boshqaraylik.

Munajat SADRIDDINOVA,
talaba.

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Chimyon qishlog'ida purviqor tog'lar bag'rida joylashgan «Baxt» oromgohiga kirib borganimizda bolalarning sho'x-shodon qo'shiqlari yangrab turardi. Rus, o'zbek, qozoq, tojik, qoraqalpoq, tatar millatiga mansub o'g'il-qizlar jo'r bo'lishib «Chamandagi gullarmiz» qo'shig'ini kuylashyapti.

So'lim go'shada 300 dan ziyod bolaning miriqib dam olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bu yerda viloyatning Bekobod, Yangiyo'l, Chirchiq va Qibray tumanlaridan, hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidan 70 nafar bola hordiq chiqarmoqda. Oromgohda har kunga moslab dastur tayyorlangan. Bo'limlarning o'z nomi bor: «Quyosh», «Do'stlik», «O'zbekiston», «Nukus»... Ushbu bo'limlarda bolalarning yong'in xavfsizligi ta'minlangan, zarur holatlarda ularga tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun tibbiyot xonasi ishlayapti. Ma'naviyat va ma'rifat xonasi hamisha gavjum ekan. Bu yerda «Mohir qo'llar» to'garagi a'zolari plastilindan va matolardan ertak qahramonlarini yasashadi, to'qish sirlarini o'rganishadi.

Kutubxonadagi rus va o'zbek tilidagi badiiy adabiyotlar qo'lma-qo'l

bo'lib ketgan. Oromgohning jo'shqin hayoti «Bizning ertamiz» devoriy gazteasida aks ettirib boriladi. Unda «quvnoq startlar» KVN o'yinlari, tog'u

CHAMANDAGI GULLARMIZ

qirlar bag'riga sayohatlar, adabiy kechalar, giyohvandlikka qarshi o'tkazilgan suhbatlar aks etadi.

- Bunday quvnoq tadbirlar bilan bolalarga mustaqil Vatanimizga sadoqat, kattalarga hurmatda bo'lish ona



tilimizga mehr-muhabbat, o'zaro do'stlik hislarini singdiryapmiz, - deydi oromgoh boshlig'i, mohir pedagog Mahmuda Ortiqova biz bilan suhbatda. Bolalar musiqa rahbari Genadiy Yeliseyev


boshchiligida beg'ubor bolalikni tarannum etuvchi qo'shiqlarni bir umr eslab turadilar. Ertakdagi o'rmonni eslatuvchi salqin, osoyishta oshxonaning qo'ligul oshpazlari

shirin-shakar ovqatlar bilan bolajonlarni siylashadi, bu yerdagi homiyilar tomonidan g'arq pishgan ho'l mevalar, sut-qatiq arimaydi sira.

Yaqinda «Baxt» oromgohida «Sog'lom avlod uchun» xalqaro jamg'armasi «mehr va muruvvat yili» dasutri doirasida xayriya tadbiri o'tkazdi.

Bu yerda Orolbo'yi mintaqasidan kelgan xorazmlik 70 nafar kamta'minlangan oilalarning farzandlariga dori-darmonlar, multivitaminlar tuhfa etildi. Uni jamg'arma bo'lim mudiri Jumabek Nurov topshirdi. Jamg'armaning tibbiy ijtimoiy guruhi a'zolari bolalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazdilar, kerakli maslahatlarni berdilar. Jamg'arma qoshidagi «Sog'lom avlod g'unchalari» teatr studiyasi aktyorlari «Qirmizi olma» spektaklini namoyish etib, bolalarga, bir olam quvonch baxsh etishdi.

Toshkent vildoyati kommunal xo'jaligi boshqarmasiga qarashli mazkur



oromgohda madaniy-ma'rifiy ishlar yuqori darajada tashkil etilganini guvohi bo'ldik. Shu bilan birga mutasaddi tashkilot e'tiboriga ba'zi

narsalarni - ko'p bo'limlarda krovatlarning eskib,

bandlari yaroqsiz bo'lib qolgani, javonlar yo'qligidan bolalar kiyim-kechaklarini to'g'ridan to'g'ri krovatlarga yoyib qo'yishga majburligini, stadionlarning qarovsizligi, voleybol setkalarining yirtilib, uvada bo'lib yotganini aytmay ilojimiz yo'q. Axir, bolalar sportini rivojlantirish, yozgi dam olishning mazmunli o'tkazishda bularning ham katta ahamiyati borda. Kelgusi safar bolalar huzuriga borganimizda ana shu kamchiliklar ham batamom tugatilishiga umid qilib qolamiz.

Zamira TO'LAGANOVA

KITOBXON BOLALARMIZ

Salom, qadrdonim «Tong yulduzi»! Biz Pop tumanidagi G'urumsaroy ixtisoslashgan litseyi o'quvchilarimiz. Nomidan ko'rinib turganidek, litseyimizda bilimga chanqoq, intiluvchan o'quvchilar o'qishadi. Kitob o'qish, gazeta va jurnallar mutolaa qilish - eng sevimli mashg'ulotimiz. Sening har bir soningni zo'r qiziqish bilan o'qib boramiz. Rang-barang sahifalaring bizga juda yoqadi. Shuning uchun ham yangi yildan hammamiz senga obuna bo'lishga kelishib oldik. Hatto, eski sonlaringni ham yig'ib qo'yib o'qiymiz, baribir zerikmaymiz. Jahon adabiyoti durdonalaridan berilayotgan asarlar diqqatimizni tortdi, shu bois bizda bir taklif tug'ildi: «Men sevgan adib» nomli yangi sahifa tashkil qilsang. Unda taniqli shoir va yozuvchilarimiz ijodidan namunalar berib borsang.

Litsey o'quvchilari nomidan: **Alisher IBRAGIMOV,**
Namangan viloyati, Pop tumani, Chodak qishlog'i.

Menda bir taklif bor

BIZNING OVUNCHOG'IMIZ

Yozgi ta'til kunlarimiz oxirlab boryapti. Hademay, qadrdon maktabimiz bag'riga qaytamiz. Darsdan bo'sh vaqtlarimizda «Tong yulduzi» yana bizning ovunchog'imizga aylanadi. Istardikki, uning sahifalari boshqotirmalaru krossvordlar bilan yanada boyisa. O'quvchilar muammolarini ko'tarib chiqadigan maqolalar, ularning yechimi haqidagi fikr-mulohazalar ham berib borilsa...

Men maktabimiz sardoriman, mahallada esa «Kamolot» YoIH boshlang'ich tashkilotining yetakchisiman. «Kamolot» YoIHining faoliyati, qo'lga kiritayotgan yutuqlari bizni juda qiziqtiradi. Shular haqida ham xabar va lavhalar chop etilib turilsa, ayni muddao bo'lardi. To'g'ri, sahifalaringni sinchiklab o'qiydiganlar bunday maqolalar chop etayotganingga guvohdir. Lekin, bu fikrimni aziz tengdoshlarim uchun yozyapman. Agar ular o'z joylaridan shunday maqola va lavhalar yozib turishsa, sevimli gazetamiz mundariyasi yanada boyib, keng qamrovli bo'lardi.

Natalya RAJAPOVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 7 - umumta'lim maktabining 11 - sinf bitruvchisi.

Har bir insonning kindik qoni to'kilgan mo'jaz vatani - aziz va qadrdon mahallasi bo'ladi. U shu go'shada o'sib-ulg'ayadi, kamol topadi. Umrimizning eng beg'ubor, betakror bolalik damlarini shu maskanda kechirganimiz bois, u biz uchun juda qadrlil, ardoqli bo'lib qoladi...



Lekin bu fikrimga hamma ham qo'shilolmasa kerak, deb o'ylayman. Chunki ko'plab tengdoshlarim bilan suhbatlashganimda, o'z mahallalari haqida hech bir tasavvurga ega emasliklarining guvohi bo'laman. Ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni ham bilishmaydi. «Oqsoqolingiz kim? Sizlar bilan mashg'ulotlar o'tadigan pedagoglaringiz bormi?», deb so'rasam, yelka qisishadi...

Agar shunday savollar bilan bizning mahallamiz bolalariga murojaat qilib ko'ring, ta'til kunlarini maroqli o'tkazishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar haqida bir-birlariga navbat bermay, so'zlay ketishadi. Rosti ham shu-da! Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi obod mahallalardan biri bo'lmish «Sharq» nomli

MAHALLAM - OVUNAR JOYIM

mahallamizni ko'plab mahallalarga ibrat qilib ko'rsatsa arziydi. Chunki, bekorchilikda ko'cha changitib yurgan o'smirmu uchratmaysiz. Ular uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Keling, yaxshisi bu haqida mahallamiz oqsoqoli Agzam aka Mahmudovning o'zlaridan eshitaylik:

Istiqlolim - istiqbolim

Mahallamizda 10600 nafar aholi istiqomat qiladi. Shulardan 5200 nafarini yoshlar tashkil qiladi. Ularning bo'sh vaqtlarini maroqli, mazmunli o'tkazishlari uchun astoydil harakat qilyapmiz. Qizlarimiz uchun tikuvchilik, kashtachilik to'garaklari ishlab turibdi. Karate, taekvando va futbol to'garaklari esa o'g'il bolalar xizmatida. Yana bir xushxabar: Mustaqilligimizning 13 yilligi arafasida bolalar uchun sport maydonchasini ishga tushirish arafasidamiz. Maydonchamizda suzish havzasi, shaxmat-shashka xonalari, zamonaviy futbol maydoni va karate klublari mavjud. Mahallamizdagi k a m ta'minlangan oilalarning farzandlari klubga bepul qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bolajonlarning eng sevimli maskaniga aylangan kompyuter klubimizda kam ta'minlangan oilalar farzandlari hamda nogiron bolalar bepul shug'ullanishlari mumkin. Turli-tuman kitoblarga boy kutubxonamiz ham doimo bolajonlar bilan gavjum.

Yaqinda futbol terma jamoamiz tumanlar va viloyatlararo o'tkazilgan chempionatda faxrli o'rnlarni egallab, Andijonda o'tkaziladigan respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdilar...

Agzam aka yana uzoq gapirdilar. Ishi, yutug'i bor odamning gapi ham ko'p bo'ladi-da, axir, shunday emasmi?

Xo'sh, aziz tengdoshim, sizning mahallangizda nima gap? Siz ham o'z mahallangiz haqida shunday mehr bilan yoza olasizmi? Maktublaringizni kutamiz?

Gulshan ERGASHEVA.



Dilnavoz O'RINBOYEVA - 1991 yil 1-iyunda Andijon shahri, Izboskan tumanida dunyoga kelgan. Hozirda shu tumandagi 30-o'rta maktabining 8-sinf o'quvchisi. Sevimli mashg'ulotlari - she'r, hikoya yozish. Yosh bo'lishga qaramay Andijondagi «Muxbirlar maktabi»ni tamomlab «Eng kichik jamoatchi muxbir» guvohnomasini qo'lga kiritgan. Bu haqda kengroq ma'lumotga ega bo'lish maqsadida Dilnavozning o'ziga murojaat etdik:

-Dilnavoz, 13 yoshingizda «Eng kichik jamoatchi muxbir» bo'lishga ulguribsiz. Buning asosiy sababi nimada deb o'ylaysiz?

-Kichikligimdan she'rlar, hikoyalar yozishga juda qiziqqanman. Adajonim bu

bo'lsa kerak, maktabimiz juda ko'rkam. Xushmanzara hovlisini ko'rgan kishining maktabimizga havasi kelmasdan iloji yo'q. Chunki maktab atrofi gullar bilan

limmo-lim, turli xil mevali

Menda shunday kunlar bo'lganida qo'limga qalam olaman. Shundagina kayfiyatim ko'tarilganini sezaman.

-Demak, kayfiyatingiz qalamga bog'liq ekan-da?

-Har doim ham emas. Agar yozganlarim ko'ngildagidek

QALAMGA BOG'LANGAN KAYFIYAT

qiziqishlarimga befarq qaramay, meni «Andijonnoma» va «Andijanskaya pravda» gazetalari qoshida ochilgan «Muxbirlar maktabi»ga olib borganlar. O'sha vaqtda 5-sinf o'quvchisi edim. Asosan, «Muxbirlar maktabi»da katta yoshdagi aka-opalar va oliygohlarda o'qiydigan talabalar tahsil olishar ekan. Ular juda ko'p narsalarni bilibgina qolmay, menga bilmagan narsalarimni erinmasdan tushuntirib berishardi. «Eng kichik jamoatchi muxbir» guvohnomasini olganimda quvonchimni ichimga sig'dira olmaganman.

-Maktabdagi do'stlaringiz ham sizga havas qilishsa kerak?

-Havas qilish-qilishmasligini bilmaymanu, ammo do'stlarimiz bilan bir-birimizga juda mehribonmiz. Biron-tamizning tobimiz qochib qolsa, darslardan orqada qolgan do'stimizga yordam beramiz. Bir kun ham maktabdan qolgimiz kelmaydi. Chunki u yerda do'stlarimiz bilan ko'rishibgina qolmay, maktab ishlarida ustozlarimizga yordam beramiz. Shuning uchun ham

daraxtlar ham gurkirab, qad ko'tarib turibdi. Ayniqsa, birinchi qavatdagi gullar odamning bahri dilini ochadi.

-Ko'rinib turibdiki, tabiatning go'zal va betakror manazaralariga befarq emas ekansiz. She'rlaringizning yozilishi ham shunga bog'liqmi?

-Ikki xil holatga tushganimda she'r yoki hikoya yozgim kelishini sezib qoldim. Biri - judayam xursand bo'lib ketganimda, ikkinchisi esa xafa bo'lganimda.

-Bular sizning ta'sirchan qiz ekanligingizdan dalolat emasmikan?

-Menimcha, har bir insonning yaxshi va yomon kunlari bo'ladi.

chiqsagina kayfiyatim a'lo bo'ladi.

-Kelajakda jurnalist bo'lmoqchiman, dedingiz. Buning uchun qalam va a'lo kayfiyatning o'zi yetarli, nima deb o'ylaysiz?

-Bu ikki narsa yaxshi jurnalist bo'lish uchun kamlik qiladi. Jurnalist bo'lish uchun ona tili, adabiyot va chet tillarini mukammal o'rganish lozim. Men hozir rus tili va ingliz tilini o'rganyapman. Keyinchalik esa nemis, farnsuz, xitoy va jamiyki jahon tillarini o'rganmoqchiman.

-Jahon tillarini barini o'rganish, menimcha, ancha mas'uliyatli va qiyin vazifa bo'lsa kerak?

-Albatta, qiyin. Lekin, inson qiyinchiliksiz baxtga erisha olmaydi-da. Qiyinlab erishilgan yutuqlar menga yoqadi.

-Kelgusi rejalaringiz?

-Muallimlik ko'rsatuvimni tayyorlab, oynayi jahon orqali namoyish etmoqchiman. Bu orqali olgan bilimlarimni yanada mustahkamlayman.

Biz bilimga chanqoq Dilnavozga kelgusi ishlarida omadlar tilab qoldik. Kelajakda undan yetuk jurnalist yetishib chiqishiga ishonchimiz komil.

Gulyuz VALIYEVA suhbatlashdi.



MISR EHROMINI KIM QURDIRGAN?

Dunyoning 7 mo'jizasi haqida eshitganmisiz? Eshitgan bo'lsangiz ularning biri Misr ehromlari ekanini ham bilsangiz kerak. Bu salobatli ehromlar necha yillardan beri insoniyat oldida eng katta jumboq bo'lib kelmoqda. Sababi, hech kim uning qurilish siridan voqif bo'lish sharafiga muyassar bo'lmagan.

Tarixiy manbaalarda zikr etilishicha, avvalgi fir'avnlarnomlarini abadiylashtirish maqsadida yodgorlik qurdirganlar. Shunday firavnlardan biri Joser birinchi bo'lib bu ehromlardan birini qurdirgan. Bilasizmi, ehromlarning bittasini qurish uchun 40 yil kerak bo'lgan. Shundan 20 yili kerakli toshlarni yig'ishga, 20 yili toshlarni piramida shaklida taxlashga ketgan. Misr ehromlari orasida eng kattasi Xlops bo'lib, uni qurishni o'ziga 2 mln. 300 mingta tosh sarflangan. Eng kichik toshning og'irligi esa aql bovar qilmas darajada - 2,5 tonna bo'lgan. Mana shuning uchun ham olimlar uning zamonaviy texnikasiz shu darajada mukammal qurilishi sirini hanuzgacha ocholmay kelishmoqda.

Xeops piramidasining balandligi 146,5 metr, poydevorining 4 ta tomi esa 233 metr bo'lgan.



Bu qiziq

SFINKS ODAMMI YO SHERXON?

Bundan tashqari ehromlar yaqinida sfinks deb ataluvchi maxluq haykali ham savlat to'kib turibdi. Sfinks - kallasi odam, tanasi sherxon qiyofasidagi maxluq. Rivoyatlarga ko'ra go'yoki u ehromlar tinchligini qo'riqlab turadi. U qadimgi misrliklar tasavvuridagi qo'riqchi bo'lishi ham mumkin. Xo'sh, ehromlar o'zi nima maqsadda qurilgan?

Gap shundaki, misrliklar «o'limdan keyingi hayot»ga ishonganlar. Shuning uchun ular o'z fir'avnlarning jasadini mo'miyolab, uni ehromning alohida ajratilgan joyiga qo'yganlar. Ularning fikricha, fir'avn hayotlik vaqtida nimaga ega bo'lgan bo'lsa, u dunyoda ham o'sha narsalarga ega bo'ladi, deb hisoblangan.

Misr ehromlari chindan ham dunyoning bir mo'jizasi ekani va hanuzgacha sirli jumboq bo'lib olimlarni o'ylashga majbur qilayotgani ayni haqiqatdir.




Shahzoda RAHIMOVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
181-litsey-maktabi bitiruvchisi.



Bir kunda dunyoga kelgan Azamatbek va Leana o'zlarining bir yoshlarida tushgan suratlarini tanlovga yuboribdilar. Hozir ular ancha katta bo'lib qolishgan.

ENG YAXSHI FOTOSURAT KIMNIKI?

Aziz o'quvchilar! Sevimli gazetangiz «Tong yulduzi»ning rangli tasvirda chiqayotganidan xabaringiz bor-a? Unda chop etilayotgan turli xangdagi fotosurat va rasmlar e'tiboringizni jalb etayotgan, ko'zingizni quvnatayotgan bo'lsa, ajabmas. Gazetaning ana shunday rangli suratlarga boy, chiroyli shiqishida Siz ham o'z hissangizni qo'shishingiz mumkin. Buning uchun o'zingizga yoqqan, bolalikning belakror lahzalarini ifodalovchi suratlarni ta'hiriyatimizga yuborishingiz kerak. Suratlarda ustozlaringiz, o'la a'zolaringiz, do'st o'stoqlaringizdan tortib o'zingiz sevgan uy hayvonlari-yu, hayotingizdagi quvonchli damlarni ifodalovchi lahzalar ham namoyon bo'lishi mumkin. Ularga tag so'z yozish ham o'z ixtiyoringizda. Iltiq va sifatli rangli suratlarni gazetamizning birinchi sahifasida e'lon qilinadi.



AFINA - 2004



Aziz bolajonlar, barchamizga ma'lum, 13 avgust kuni Gretsiya poytaxti Afina shahrida sport olamining eng nufuzli musobaqasi - XXVIII yozgi Olimpiada o'yinlari

ramzi hisoblanadi. Shuning uchun ham Olimpiada o'yinlari chog'ida har qanday urush harakatlari, qurolli to'qnashuvlar to'xtatilgan.

Rim papasi Ioann Pavel II ning musobaqa

boshlandi.


Gretsiyada Afina shahri xalqini «g'alaba bilan tug'ilgan xalq», deyishar ekan. Siz tarixdan yaxshi bilgan Gerakl, Odessey kabi mo'jizaviy qahramonlar ham shu shahardan kuch-quvvat olgan bo'lsalar, ne ajab?!

Olimpiya o'yinlari ilk marotaba eramizdan avvalgi 776 yilda Olimpiya shahrida o'tkazilgan edi. Ushbu musobaqaning zamonaviy ko'rinishiga baron Pyer de Kuberten asos solgan. 1896 yilning 6-15-apreligacha davom etgan dastlabki o'yinlarda 14 ta mamlakatdan 311 nafar sportchi g'oliblik uchun kuch sinashgan edi.

Yillar o'tishi bilan Olimpiya o'yinlari yer kurrasining barcha qit'alaridagi mamlakat sportchilarini do'stona bellashuvlarga chorladi. Garchi Olimpiada o'yinlarining 1913 yilda Pyer de Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan belgisi - ko'k, qora, qizil, sariq va yashil

oldidan uning barcha ishtirokchilariga omad va xotirjamlik tilab qilgan duolari, tinchlik ovozi misol yangradi. So'ngra maydonga birin bo'lib mezbonlar - Gretsiya sportchilari kirib keldilar. Musobaqa qatnashchilari va tomoshabinlar bilan liq to'lgan Afinaning bosh stadionida o'zgacha ruh va shukuh hukmron edi... Hozirda dunyoning 202 mamlakatidan tashrif buyurgan 10500 nafar sportchilar g'oliblik uchun astoydil kurash olib bormoqdalar. G'olib va sovrindorlarga atalgan 301 dona medallar shodasi munosib egalarini kutmoqda.

G'ALABA BILAN UYG'ONGAN SHAHAR



oldidan uning barcha ishtirokchilariga omad va xotirjamlik tilab qilgan duolari, tinchlik ovozi misol yangradi.

So'ngra maydonga birin bo'lib mezbonlar - Gretsiya sportchilari kirib keldilar. Musobaqa qatnashchilari va tomoshabinlar bilan liq to'lgan Afinaning bosh stadionida o'zgacha ruh va shukuh hukmron edi...

Hozirda dunyoning 202 mamlakatidan tashrif buyurgan 10500 nafar sportchilar g'oliblik uchun astoydil kurash olib bormoqdalar. G'olib va sovrindorlarga atalgan 301 dona medallar shodasi munosib egalarini kutmoqda.






OLIMPIYA MASH'ALASINI KIM YOQDI?

Tabiiy quyosh nurlari yordamida alanga oldiriladigan Olimpiya mash'alasini yoqish har bir sportchining ezgu niyati, orzusidir. Lekin uni yoqish har kimga ham nasib etavermaydi. Olimpiya mash'alasini yoqish gretsiyalik yelkanli qayiqda suzish bo'yicha Olimpiada chempioni Nikolaos Kaklamanakisga nasib etdi.

Darvoqe, Olimpiada o'yinlarida eng ko'p vakillari ishtirok etayotgan davlatning nomini ham bilib oling. U Amerika bo'lib, sportchilari 100 ta medalga da'vogarlardan sanaladi.

Bolajonlar, orangizda futbol ishqibozlari ko'pligini juda yaxshi bilamiz. Olimpiada o'yinlarini birinchi bo'lib futbol jamoalari ochib berganligini ko'rib juda quvongandirsiz.



Sog' yurak - tog' yurak

G'ALABAGA YO'L

Parkentimizda ko'pchilikka tanish bo'lgan yosh, umidli bir sportchi bola bor. Uning ismi-Anvar. Tumanimizdagi 6- o'rta maktabda tahsil oladi. 12 yoshidan boshlab sportning taekvondo turi bilan shug'ullamb keladi. Murabbiyi Dima Kim bilan tinimsiz mashg'ulotlar o'tkazib, charchamaydi.

-Oilamizdagi shart-sharoitlar yaxshi bo'lmaganida men yaxshi sportchi bo'lolmasdim,- deydi Anvar Sultonov. - Ota-onamning menga bo'lgan ishonchlarini doimo oqlagim kelardi. Birinchi jangimni 2001 yili Angrenda o'tkazib, kumush medal sohibiga aylanganman. O'shanda onamning quvonganlarini bir ko'rsangiz edi. G'alabam menga yangi kuch, g'ayrat baxsh etdi. Aleks chempionatida 3- o'rin nasib etgan bo'lsa, 2002 yili yosh taekvondochilar o'rtasidagi musobaqada eng yuqori natijaga erishib, oltin medal

bilan taqdirlandim. O'zingizdan qolar gap yo'q, g'alabaga osonlikcha erishib bo'lmaydi. Buning uchun tinimsiz mashq qilish lozim. Men mehnatdan qochmadim. Ana shu mashqlar hayotimni mazmunli o'tkazishimga yordam berardi. Vaqtim bekorga sarflanmasdi, mahoratim kun sayin oshib borardi. Musobaqalarda tengdoshlarimning usullarini o'rganardim. Murabbiyning maslahatlariga amal qilgan sportchi yaxshi natijalarga erishaverar ekan.

Ustozimiz aytganidek, hech bir bola iqtidorsiz bo'lmaz ekan. O'zidagi iste'dodni vaqtida anglasagina, biror natijaga erishish mumkin...

Tengdoshimning fikrlarini tinglab, unga bo'lgan hurmatim yanada oshdi. Chunki u aniq maqsadlar yo'lida izlanayapti, yurt bayrog'ini baland ko'tarish ishtiyoqi bilan yonyapti.

Sadoqat DADAYEVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 1- o'rta maktab o'quvchisi.



Birinchi muhabbat! Bu so'z kimningdir yodiga hayotidagi eng totli, baxtiyor damlarini solsa, kimlardir chehrasiga ma'yuslik yugurib, hijronli, «shirin» azoblarga giriftor bo'lgan kunlarini xotirlaydi. Barchaning qalbini birdek hayajonga soladigan bu tuyg'u Lolaning ko'nglini ham zabt etdi...

Lola tabiatan og'ir-vazmin qiz edi. O'qishlarini muvaffaqiyatli tamomlab, bilim yurtiga kirishni orzulardi. Ayrim dugonalari kabi darslarda ishq-muhabbat haqida o'ylab o'tirmasdi. Lekin ularning ishqiy sarguzashtlari haqidagi hikoyalarini jon deb eshitardi. Bir kun kelib o'zi ham bu «dard»ga muhtalo bo'lishini xayoliga ham keltirmasdi.

Yurakka buyruq berib

bo'lmas ekan. Lola Aziz ismli bola haqida juda ko'p o'ylaydigan bo'lib qoldi. Uni sevib qolganini anglab yetganida

LOLANING O'Z FIKRI BOR

esa, Aziz ham unga befarq emasligini bildi. Endi u yettinchi osmonda uchib yurardi. Azizni ko'rganda yuragi boshqacha urib ketardi. Tuyg'ularini o'zgalardan yashirishga urinsa-da, yuz-ko'zlari barini aytib turardi. «Nega unga ko'nglingda borini aytmayсан? Bunaqada uni qo'ldan chiqarasan-ku», deya holi-joniga qo'yishmasdi dugonalari. Lekin Lola ularning gaplariga e'tibor bermasdi.

Uning uchun Azizning borligi, sog'-salomatligi, baxtiyor ekanligi muhim edi...

Bu voqeani qalamga olishdan maqsadim shuki, sevgi deb atalmish ajib tuyg'uga yengil-yelpi, yuzaki qaraydigan ayrim yoshlarimizga o'rnak bo'lsin. Bu tuyg'u kimlargadir ijobiy ta'sir qilsa, kimlardir o'ziga bino qo'yadigan, xudbin qilib qo'yadi. O'z his-tuyg'ularini ko'z-ko'z qilishdan or qilmaydilar. Sevgi-muhabbatning qadrini boylik bilan o'lchaydiganlar ham talaygina.

Lola esa ularning hech biriga o'xshamaydi. Yigitlarga ko'ngil ochish qiz bolaning sha'niga dog', deb biladi. Birinchi va pok muhabbatini qalbida ardoqlab yashayapti.

Maktabdagi muhabbat



SIRLI TONG

Tong olmoqda, yana yangi tong,
Yig'lagan ko'zlardek qizaradi kun.
Qalbm anglamoqqa ojiz erur ong,
Nega hech bir sas yo'q, nega yo'qdir un?

Nigohim og'ritib qirga qarayman,
Ko'rinmas kechagi ochilgan lola.
Ko'rinmas har kuni ko'ringan odam,
Qo'tida guldasta ko'targan bola.

Har kuni mast bo'lib sayyardi bir qush,
Saboda taralgan hidlardan sarxush.
Bugun tark aylabdi makonin bulbul,
Bugun xush bo'yidan ayrilibdi gul.

Kamola ORIFJONOVA,
Usmon Nosir nomidagi Toshkent matbaa-noshirlik kasb-hunar kollejining 2 - kurs talabasi.

USTOZ TANBEHI OTA MEHRIDAN ZIYOD

Gazetaning shu yil 16 fevral sonida bosilgan «Ustozimni uyaltiraman» sarlavhali maqolani o'qib, to'g'risi biroz ranjdim. Dilnozani koyigim keldi. Chunki u ustozining bergan tanbehlarini ko'ngliga og'ir olibdi. Axir, ustozlar o'quvchilarini bekorga urishishmaydi, yaxshi bo'lgin deya jon kuydirishadi-ku...

Keyingi paytlarda maktab o'quvchilari orasida 14 fevralni «Sevishganlar kuni» tarzida nishonlash urfga aylanib qolyapti. Men bu fikrga mutlaqo qarshiman. Chunki sevgi yuraklarda yashaydi. Demak, u ko'ngil mulki. Uni ko'z-ko'zlash, doston qilish noto'g'ri. O'quvchimi - o'qishini bilsin. Sevgi-muhabbat haqida o'ylashga ularga hali erta.

Bu mening shaxsiy fikrim, qo'shilish qo'shilmaslik ixtiyoringiz.

To'liqin MAMATOV,
Samarqand viloyati, Nurobod tumanidagi
31 - o'rta maktabning boshlang'ich sinfi o'qituvchisi.



«MAROQLI SUHBAT»

Farg'ona viloyati, Furqat tumani,
Boltako'l qishlog'ida istiqomat qiluvchi tengdoshingiz
Mukammal QOSIMOVA chizgan rasmini shunday nomlabdi.

BOLALARNING SIRDOSHI

Men 3 qiz, bir o'g'ilning onasiman. Farzandlarim «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishadi. O'g'lim hali kichikrog'u 5-, 7-, hamda 9-sinflarda tahsil oladigan qizlarim uning har biri sonini intiq kutishadi. Har birining o'z sevgan sahifasi bor: Kenja qizim «Tanishuv» sahifasini, ikkinchi qizim «Kunlardan bir kun» rukni ostidagi hikoyalarni, kattasi esa «Qulog'ingga gapim bor», «Maktabdagi muhabbat» sahifalarini berilib o'qiydi. Ularga qiziqib men ham bolalikdagi qadrdonimni o'qib chiqaman...

Yaqinda bir onaxonning maktubini o'qib qoldim. Unda yozilishicha, bolalar gazetasida «Maktabdagi muhabbat» sahifasining berib borilishi noto'g'ri emish, o'smirlar fikrini o'qishdan chalg'itarmish. Men bu fikrga qo'shilolmayman. Biz xohlaymizmi, xohlamaymizmi, maktab yoshidagi ayrim o'g'il-

qizlarimiz qalbida bu sof, noyob tuyg'u mehmon bo'lishi mumkin. Shunday damlarda ular bir maslahatgo'yga, sirdoshga muhtoj bo'ladilar. Bu sahifa ularni to'g'ri yo'lga boshlaydigan do'st, ot-onalariga ham aytolmaydigan quvonchu totli iztiroblariga sirdoshning o'zginasi. Sahifada nafaqat o'quvchilarning ishqiy kechimalari, balki, katta hayot tajribasiga ega onalarning, shuningdek, ruhshunoslarning ham fikr-mulohazalari, maslahatlari e'lon qilinib borilayotgani, ayni muddao bo'lyapti.

Nazira QOSIMOVA,
Toshkent shahri.



Maktabimizda o'qiydigan Sanobar ismli qiz bilan bitta mahallada yashaymiz. Tunov kuni dugonalarim bilan gaplashib turgandik, davramizga kelib qo'shildi. Keldi-yu, suhbatimiz mavzusini o'zgartirib yubordi.

-Qizlar, maktabni juda sog'indim, -degan gapi hammamizni ajablantirdi. Chunki uning o'qishga toqati yo'qligini yaxshi bilardik-da. Aniqrog'i, o'qishni emas, Zafarni

«MAKTABNI JUDA SOG'INDIM»

sog'indim. Maktabda har kuni ko'rishib turardik. Hozir esa buvim uydan chiqarmaydilar. Non-ponni bahona qilib, ko'chaga chiqaman-da, uzoq aylanib yuraman. U esa ko'rinmaydi. Kayfiyatim tushib ketadi, qo'lim ishga bormaydi...

Mana, qarating, -deya bilagini ko'rsatdi Sanobar. Qarasak, qo'liga igna bilan o'yib «Zafar» deb yozib qo'yibdi. Biz hayratdan yoqa ushladik.

-Og'rimadimi? Uydagilaring ko'rib qolishmadimi? -deya savollarga ko'mib tashladik.



Shahnoza MAVLONOVA,
Andijon viloyati, Izboskan tumani.

(Davomi. Boshi gazetaning o'tgan sonlarida.)

Cholning har bir harakatini kuzatib o'tirgan Alisherning nazarida darrov nay tayyor bo'la qolsa!

Biroq chol shoshilmas, misli zargardek ishlar edi.

-Chamamda nay tayyor bo'ldi,- dedi tasmol bilan Alisher.

Zerikdingmi, chirog'im? Bir oz o'ynab kela qol. Bu ish mushkul bir san'at. Soz, pardoz... Eh-e, hali pardalarni qancha sozlashim darkor bo'ladi, toychog'im.

Peshinga yetib bitirasizmi, bobo?- deb so'radi Alisher jiddiy tusda.

-Menimcha, uch kun deganda tayyor bo'lur, Sherim,- dedi nay pardalarini ehtiyot bilan tesha boshlagan chol.- Nay ishini farishtalar keltirganmish, ezgu, tabarruk ish bu.

Hofizlar oshiqlik bilan nayni madhiya qilib chunon kuylaydilarki, eshitasang sel bo'lursen. Oshiqona baytlar, g'azallar, hikmatli gaplar ko'p, Alijon, mana buning ma'nosini chaq!

Chol ohista mungli ohang ila kuylaganday o'qib ketdi:

*Bishnov az nay, chun hikoyat mekunad.
Az chudoyho shikoyat mekunad.*

Turkiyda: tinglagil nayni, hikoyatlar qilur, judoliklardan shikoyatlar qilur, degani chirog'im.

Chuqur sukutda tinglangan Alisherning yuragiga shirin bir hissiyot quyilib keldi.

-G'azal ko'nglimga cho'g'day yopishur, bobo, qay shoir aytgan bu baytni?

ALISHERNING YOSHLIGI

OYBEK

-Buzurg shoir mavlono Jaloliddin Rumiy aytganlar, chirog'im.

-Mavlono Rumiy g'azallarini ko'p eshiturmen, zavqqa to'lib toshgan, sho'x, hayotiydur barchasi,- deya bir zum o'ylanib qoldi Alisher.- Bobo, tangrim qayerda o'zi, qani? Ko'p o'ylaymen, lekin anglashga sira iqtidorim yetmaydur.

Chol nay pardalarini tarashlarkan:

-O'g'lon yoshsen, fursati kelgach o'z fahming bilan bilib olursen,- deya ma'noli jilmaydi chol.

-Hamisha kamsavodmen, deysizu biroq hech kimsa sizdek ko'p g'azal bilmaydur, g'azallardan o'qing yana, - deya yalindi Alisher.

-Chirog'im, bir o'ynab kel, xarxasha qilaversang, nayni buzib qo'yurmen. Bu hunar diqqat talabdur.

Bir shokosada shirchoy keltirib, kampir chol oldiga bo'z dasturxon yozarkan Alisherga dedi:

-Choping, Alisherbegim, ayvonda qaymoqli shirchoy suzib qo'ydim, iching.

-Hozir kelurmen, bobojon, g'azallarni yodingizga yig'ib turgaysiz,- deya chiqib ketdi Alisher.

Non burdalarkan, kampir cholni koyirdi:

-Bola-da, nimaning ma'nosini bilardi, yumaloq-yassi qilib bering-qo'ying-da, o'zingiz ham xo'b ezmasiz, bir qarich g'arovni sahardan beri qirtishlaysiz. Mana bo'ldi, deb tutqazib yuboravermaysizmi?!

-Zavqu shavqning siri ko'p,- dedi chol koyigan ohangda,- barcha cholg'ularning ulug'i ham, a'losi ham naydur, bir haftadan ortiq urinsam-da, kamlik qilur. O'g'ilchamga jobajo qilib bersam, degan niyatim bor. Ko'p sinadim, ulg'aysa bilgich, donishmand bo'lur. Halitdan tili tangani teshadi, ko'zlaridin ko'kraging o'tini ko'rurmen. G'azallarni zavq bilan tinglaydur, cholg'ularga havasi baland.

-Ha, qo'chqor bo'lur qo'zining peshonasi do'ng bo'lur, zora bir ishning boshidan chiqsa,- so'ng cholni koyidi. - Qarang-a, o'tirgan joyingiz nuqul xascho'p...

-Bas, supurib qo'ya qol, ozoda bo'ladi.

Kampir labini burdi-da, supurgi olib kelgani hovliga chiqib ketdi.

Alisher qo'liga nay tekkan hamon uni avval onasiga, otasiga ko'rsatdi.

-Chol xo'b hafsala qilibdi,- deb qo'lida aylantirdi nayni G'iyosiddin.

-Bobom nayning piri,- deb maqtandi Alisher,- o'zi ham olti kun ishladi-da.

-Qani chaling, eshitaylik,- deya kuldi onasi.

Alisher qizarib ketdi:

-Nayni ustasi chaladi, dada, bir ustoz topsangiz o'rganardim.

-Xo'p, o'g'lim, balki bir naychi topilur, surishturimiz, ehtiyot qil, - deb otasi nayni Alisherga tutqazdi.

Ko'chada o'rtoqlari Alisherni qurshab olgan edilar. Yetti yoshlardagi durkungina bir bola:

-Bizning naychi ustod qarindoshimiz bor, xo'p desang hozir olib borurmen. Yo'q demas, o'rganursen,- dedi va mullayoqa bo'z

ko'ylak ustidan bog'langan qiyiqni kattalardek qunt bilan qayta bog'lab oldi.

-Uyi yaqinmi?- deya so'rarkan Alisher, oyim koyimasmikin, deb o'ylar edi ichida.

-Uzoqroq-ku, ammo hechqisi yo'q, bir zumda yetamiz.

Ikkovlashib pastqam, o'nqir-cho'nqir yo'llardan borishardi. Vaqt qiyom, havo dim.

-Guzar osha borsak ham bo'lur edi, yo'l bir oz aylanishroq-da, bu yo'l lekin tik kesib chiqadi, hozir

yetamiz,- deya dalda berardi Alisherga o'rtog'i.

-Mayli, xushmanzara yo'l ekan, daraxtlarning boshini qara, naq osmonga yetaman deydi,- deya javob berdi Alisher, terlarini qo'li bilan sidirib qo'yarkan. - Ustod uyda bo'lsin-da, shuning xavotiridamen.

-Yo'g'-e, qachon borsam hamisha uyda ko'rurdim, keksayib qolganlar...

(Davomi bor.)



Toshkentning «Eski jo'va» bozori yonida O'zbekiston Davlat tabiat muzeyi joylashgan. Qadimda muzeyni «ajoyibxona» deb atashgan.

Bu muzeyining tashkil etilganiga bu yil 128 yil to'ldi. Ilgari «Toshkent muzeyi» nomi bilan atalgan bu muassasa 1876 yilda

tabiatshunoslik, antronologiya va etnografiya bilan qiziquvchi olimlarning tashabbusi ila tashkil etilgan.

Muzey 5 zaldan iborat:

1. Yerda hayotning paydo bo'lishi va quyosh sistemasidagi sayyoralar tizimi haqida ma'lumotlar beruvchi zal.

2. Umumiy biologiya bo'limida Ch.Darvin ta'limoti, ya'ni sun'iy va tabiiy tanlashga e'tibor berilgan. Genetika va seleksiya bo'limlari zali.

3.O'zbekistondagi foydali qazilmalar zali. Shu zalning yarmida inson yaratgan tabiiy

landshaftlar joylashgan bo'lib, «Farg'ona vohasi — paxtazor» va «Lalmikor yerlar» dioramalari orqali tanishasiz.

4. O'zbekistonning tabiiy landshaftlari zali. Bu zalda «To'qayzor», «Qumli sahrolar», «Adirlar», «Har xil o'tli

5. Tabiiy boyliklardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish, ya'ni ekologiya zali. Bu zalda «Qizil kitob»ga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar haqida malumotlar berilgan.

Ekologiyaning

buzilishi tufayli hozirgi kunda majruh hayvonlar ham dunyoga kelmoqda. Har bir tomoshabin shunday jonivorlarni o'z ko'zi bilan ko'rishi mumkin. Ming marotaba gapirgandan ko'ra, bir marotaba ko'rgan yaxshi deganlaridek, bir kelib 2 boshli

buzoqni, 2 boshli qo'zichoqni, bir ko'zli hamda, quloqlari yo'q qo'zichoqni ko'rishingiz mumkin.

Birinchi zalga kirgan tomoshabin o'zini o'tgan zamonga borib qolganek his qiladi. Bu yerda qadimgi

hayvonlar — dinozavr, ixtiozavr, pomozavrlarni, haqiqiy mamont tishini, terisini, toshga aylangan daraxt poyalarini ko'rish, mumkin.

Tabiiy landshaftlar dioramasini ko'rgan tomoshabin o'zini xuddi yong'oqzor, archazorda yoki adirlarda lola terib yurgandek his qiladi.

Muzey fondi juda boy. 300 mingdan ortiq hasharotlar kolleksiyasi, 4 mingdan ortiq hayvonlar tulumu (qotirilgan hayvon), 10 mingdan ziyod gerbariy va 2 mingga yaqin minerallar mavjud.



Aziz ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar! Har oyda yoki 2 oyda bir marotaba bolalaringizni biror madaniy maskanga sayohatga olib borsangiz, ularning dunyoqarashi, fikrlash doirasi ham kengayib boradi.

O'qituvchilar shu erda o'quvchilariga bimalol dars o'tishlari mumkin.

Aziz bolajonlar! Muzeyimizga kelsangiz o'zingizni tabiat qo'ynida yurgandek his qilasiz. Mazza qilib dam olasiz va bilimingizni oshirasiz.

Gulnora G'ULOMOVA,

O'zbekiston Davlat tabiat muzeyining bosh fond saqllovchisi.



ESKI SHAHARDAGI AJOYIBXONA

ONA MEHRI

Hikoya

Erta tongda Mehribon opa qizi Gulshanni qo'lidan yetaklagan qishloqda turadigan onasidan xabar olgani otlandi. Gulshanni quvonganini bir ko'rsangiz edi. Chunki, uni yoshiga to'lguncha buvisi boqib bergandi-da. Mehribon opaning bolalari turavermagach, tabiblarning maslahatiga ko'ra, yangi tug'ilgan qizchasini onasinikiga tashlab ketgandi. Qizi yoshiga to'lgach, onasiga bosh-oyoq sarpo kiydirib, xuddi birovdan olgandek uyiga olib kelgandi...

Qizi va nabirasini ko'rib quvonib ketgan Buvijon aya ularni o'tqazgani joy topolmay qoldi. Bir zumda dasturxon turli nozu ne'matlar bilan to'ldi. Ona-bola bir-birlarini juda sog'inib qolishgan ekanmi, miriqib gaplashishdi. Buvijon aya ora-chora nabirasini: «Ol, ona qizim, konfetlardan yegin»,- deya qistab qo'yardi.

Gulshan kattalarning gapiga quloq solib o'tiraverib zerikdi chog'i, chorboqqa chiqib ketdi. «Qizim, ehtiyot bo'lg'in», deya tayinlab qoldi uning ortidan Buvijon aya. Chorboqqa ko'z yugurtirarkan, nigohi hosili o'rib olingan dalada donlab yurgan ona tovuq va uning bolalariga tushdi. Uchtasi oq, qolganlari sariq tusdagi jo'jalar biram shirin edilarki. Ona tovuq qayerga borsa, ortidan qolmay ergashib yurishardi. Gulshan ularni yaqindan ko'rgisi, momiq patlarini silagisi keldi. Onasidan ancha narida

yurgan bir jo'jani ushlab oldi. Bolasining qattiq chiy-chiylashidan sergak tortgan ona tovuq vajohat bilan yugurib kelib, uning qo'lini cho'qib oldi. Gulshan bunday bo'lishini kutmagan edi chog'i, baqirib yig'lab yubordi. Shu ondayoq qoshida paydo bo'lgan onasi va buvisiga bo'lgan voqeani aytib berdi. «Tovug'ingiz ahmoq ekan.



Bolalari ko'pu, nima bo'libdi bittasini men olsam. Oyimga ko'rsatib, uyimizga olib ketaylik, demoqchiydim»,- deya hiqqillardi hamon o'zini yig'idan to'xtatolmay.

-Bolajonim, sen juda noto'g'ri ish qilibsana, tanbeh berdi buvisi uni bag'riga bosib. Jonivorlarga ozor berish eng og'ir gunoh sanaladi. Qolaversa, jo'jani

onasidan ayirsang, u nobud bo'ladi. Sen esa uning uvoliga qolasan. Parrandalarda ham onalik mehri qanchalar ustun bo'lishini ko'rdingmi? Endi unday qilmagin, xo'pmi...

Buvijon aya nabirasiga gapiryapti-yu, yodiga yangi tug'ilgan nabirasini boqqan damlari tushib ketdi. Ko'z o'ngida bolasidan xabar olgani har kuni keladigan qizining siymosi gavalandi...

Gulnoza QUVONDIQOVA,
O'zDJTU talabasi.

BOLALIGIM TASHLAB KETMOQDA

*Quvonch va shodliklar yoyilib asta,
Ufqqa yomboshlab, quyosh botmoqda.
Meni sho'xliklardan uzoglashtirib,
Nega bolaligim tashlab ketmoqda?
Tuntari onamni yotmam quchoqlab,
Yulduz ham boshqacha portab botmoqda.
Otanga erkalik qila olmayman,
Chunki bolaligim tashlab ketmoqda.
Qo'g'irchoq talashmas endi dugonam,
Sho'xliklari undan ham nari ketmoqda.
Ortimdan tosh otmas bolachalar ham,
Ularni ham bolalik tez tark etmoqda.
Bolalik bizlardan bezib ketgandek,
Kun sayin olislab, qayga yetmoqda?
«Hojim qancha?» deb yetka qisqancha,
Afsus, bolaligim tashlab ketmoqda,
Mustaqil hayotga boshlab ketmoqda.*



Majura JAMOLIDDINOVA,
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi
29 - maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi.

TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Shuxrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida № 022 raqam bilan 2003 yil 11 dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Gazeta «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. Toshkent matbaa kombinatida chop etildi. Adadi - 12527 Buyurtma № J 000482

Gazetani Otabek ESHCHANOV sahifaladi. Navbatchi: Gulyuz VALIYEVA.

Manzilibiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Obuna indeksi: 198

Bizning elektron pochtamiz: ijod@uzpak.uz

Tel: 144-63-08 144-62-34 Tel./ faks: (99871) 144-37-24



Bo'yiga: 1. Eron poytaxti. 4. Sudralib yuruvchi hayvon. 6. Germaniyaning boshqacha nomi. 8. O'zbekistondagi eng katta viloyat. 13. Milliy gazlama. 14. Izzat -... . 16. Padar (shevada). 17. Bilim manbai. 19. Jahon Otin 21. Afrikadagi eng uzun daryo. 23. Xat, maktub tarzida yoziladigan she'riy shakl. 24. Bahorda ochiladigan gul.

Eniga: 2. Eng aziz ne'mat. 3. Shaxmat vatani. 5. O'zbek milliy taomi. 7. Qizlar ismi. 9. 2002-yilgi futbol bo'yicha jahon chempionatining finalida qaysi futbolchi 2 ta gol urgan? 10. Yaxshi -... . 11. Mo'tabar zot. 12. Yetti xil rang jilosi. 15. Samarqanddagi tumanlardan biri. 18. Bizning qit'a. 20. Ishq-muhabbatni kuylovchi jang. 22. Orzu-...

Tuzuvchi: Gulshan ERGASHEVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 281-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

TOPISHMOQLAR

Katta ko'k tagandagi pishloq. (usoxnO)
Eng mazali laom... (z, os uris)
Yolg'on, lekin haqiqatga yaqin... (bahona)
Yozmaydigan ruchka... (uippo hishi)
Kitobdagi shirin yolg'on... (Erik)
Eng og'ir ish... (Haj qabirish)

Mafuna QO'CHQOROVA,
8-sinf o'quvchisi.

TEZ AYTISHLAR

Qumri qaychida qiyiqni qiyim-qiyim qilib qiradi. x x x
Toshpo'lat taqachi tulporning tuyog'iga taqa qoqli. x x x
Eshmat Enagul enasini elas-elas eslaydi. X x x
Tilining tizginini tiymagan toyar, Tovuqho'r tulkidek tilidan tutilar.

Hasan OTAQULOV,
Toshkent viloyati,
Bekobod tumani,
Navoiy shirkat xo'jaligi.